

<b>Terms</b>	<b>Atamalar</b>	<b>Izoh</b>
n-dimensional arifmetic vector	n - o'lchovli arifmetik vektor	$F = \langle F; +, -, \cdot, \cdot^{-1}, 0, 1 \rangle$ ixtiyoriy maydon bo'lib, $F$ uning asosiy to'plami bo'lsin. $F^n$ to'g'ri ko'paytmaning ixtiyoriy $\vec{a} = (a_1, a_2, \dots, a_n)$ elementi n - o'lchovli arifmetik vektor deyiladi.
Equal vectors of $F^n$	$F^n$ ning Teng vektorlar	$F^n$ ning ixtiyoriy ikkita $\vec{a} = (a_1, a_2, \dots, a_n)$ va $\vec{b} = (b_1, b_2, \dots, b_n)$ vektorlari uchun $a_1 = b_1, a_2 = b_2, \dots, a_n = b_n$ bo'lsa, berilgan vektorlar teng deyiladi.
The addition of the vectors of $F^n$	$F^n$ vektorlarining yig'indisi	$F^n$ ning ixtiyoriy ikkita $\vec{a} = (a_1, a_2, \dots, a_n)$ va $\vec{b} = (b_1, b_2, \dots, b_n)$ vektorlarining yig'indisi deb $\vec{a} + \vec{b} = (a_1 + b_1, a_2 + b_2, \dots, a_n + b_n)$ vektorga aytiladi.
Multiplication of vector to scalar	Skalyarni vektorga ko'paytirish	$\forall \lambda \in F$ skalyarni $\forall \vec{a} \in F^n$ vektorga ko'paytirish deb $\lambda \vec{a} = (\lambda a_1, \lambda a_2, \dots, \lambda a_n)$ vektorga aytiladi.
n-dimensional arifmetic vector space	n - o'lchovli arifmetik vektor fazo	$F^n$ to'plam, unda aniqlangan qo'shish binar amali va skalyarni vektorga ko'paytirish unar amallari yordamida hosil qilingan $F^n = \langle F^n; +, \{\omega_\lambda \mid \lambda \in F\} \rangle$ algebra $F$ maydon ustida qurilgan n - o'lchovli arifmetik vektor fazo deyiladi.
Linear combination of system of vectors	vektorlar sistemasining chiziqli kombinatsiyasi	$F^n$ vektor fazoning $\vec{a}_1, \vec{a}_2, \dots, \vec{a}_n, \dots$ sistemasi va $F$ maydonning $\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_n, \dots$ skalyarlari berilgan bo'lsin. $\lambda_1 \vec{a}_1 + \lambda_2 \vec{a}_2 + \dots + \lambda_n \vec{a}_n + \dots$ ifodaga $\vec{a}_1, \vec{a}_2, \dots, \vec{a}_n, \dots$ vektorlar sistemasining chiziqli kombinatsiyasi deyiladi.

<p>Linear connected system of vectors</p>	<p>vektorlarning chiziqli bog'langan sistemasi</p>	<p><math>F</math> sonlar maydoni ustida qurilgan <math>F^n</math> arifmetik vektor fazoning chekli sondagi <math>\vec{a}_1, \vec{a}_2, \dots, \vec{a}_n</math> (1) vektorlari uchun <math>F</math> maydonda kamida bittasi noldan farqli shunday <math>\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_n</math> skalyarlar topilib, ular uchun ushbu <math display="block">\lambda_1 \vec{a}_1 + \lambda_2 \vec{a}_2 + \dots + \lambda_n \vec{a}_n = \vec{0}</math> tenglik bajarilsa, u holda (1) sistema vektorlarning chiziqli bog'langan sistemasi deyiladi.</p>
---	--	---